

MAKTABGACHA YOSHDAGI AQLI ZAIF BOLALAR QO'L BARMOQLARI VA NUTQIY MATORIKASINING XUSUSIYATLARI

Nazokat Abidova

Alfraganus universiteti Pedagogika va psixologiya
kafedrası dotsenti

Sh.Ubaydullayeva

23\3 guruh talabasi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.15195986>

Annotatsiya: mazkur maqolada maktabgacha aqli zaif bolalar qo'l barmoqlari va nutqiy matorikasining xususiyatlari yuzasidan fikrlari bayon qilingan. O'yin faoliyatining xususiyatlari, bolalar bilan olib boriladigan o'yinlar tavsifi, aqli zaif bolalarning qo'l barmoqlari va nutqiy matorikasining xususiyatlari haqida olib borilgan ishlarga munosabat bildirilgan.

Kalit so'zlar: aqli zaif, maktabgacha, o'yin, qo'l, barmoq, matorika.

Аннотация: В статье изложены представления детей дошкольного возраста с задержкой психического развития об особенностях развития их пальцев и речевой моторики. В статье рассматриваются особенности игровой деятельности, дается описание игр, в которые играют дети, а также особенности моторики пальцев рук и речи у детей с задержкой психического развития.

Ключевые слова: умственно отсталый, дошкольник, игра, рука, палец, моторика.

Abstract: this article presents the views on the characteristics of the fingers and speech motor skills of preschool children with mental retardation. The characteristics of game activity, the description of games with children, and the reactions to the work carried out on the characteristics of the fingers and speech motor skills of mentally retarded children are presented.

Keywords: mentally retarded, preschool, game, hand, finger, motor skills.

O'yin maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalarning asosiy faoliyatidan biri bo'lib, u orqali bola shaxs sifatida shakllanadi. O'yin bolaning kelajakdagi o'quv, mehnat faoliyati, kishilarga munosabatining qay darajada shakllanib borishini belgilaydi.

Bolalarning o'yini nazariyasi YE.A. Flerina, YE.I.Tixeyeva, YE.A. Arkin kabi olimlar asos soldilar, keyinchalik R.Y.Lextman-Abramovich, F.I. Uradkina, N.M. Aksarina, A.P. Usova, D.V.Mendjeritskaya, R.I. Jukovskaya, T.A. Markova, S.L. Novosyolova, YE.V.Zvorigina va boshkalarning tadqiqot ishlari bolalar o'yini mavzuini ishlab chiqishga bag'ishlanadi.

Bolalar o'yinining tarixi, tabiati, uning rivojlanish qonuniyatlari L.S.Vigotskiy A.N.Leontyev, D.B.Elkonin, A.V.Zaporojets kabi psixologlar va ularning davomchilari ilmiy tadqiqot ishlarida o'z aksini topdi.

A.V.Zaporojets bolalar o'yinining ilk yoshdan boshlab kuzatib borish natijasida uni xfrakatga keltiruvchi sabablar, rivojlanish qonuniyatlari, har xil

yosh bosqichlarida bolalar o'ynining o'ziga xos tomonlari, mazmuni va tuzilishini o'rganish zarurligini ta'kidlaydi.

Bolalar bog'chasining pedagogik jarayonida o'ynining tutgan o'rnini juda katta bo'lib, o'yindan maktabgacha tarbiya yoshdagi bolalarni tarbiyalash va ularga ta'lim berishda keng foydalaniladi. Zero:

- o'yin bolalarning mustaqil faoliyati bo'lib, unda bolaning ruhiyati namoyon bo'ladi;
- o'yin maktabgacha tarbiya yoshdagi bolalar hayotini tashkil etish shaklidir;
- o'yin bolalarni har tomonlama tarbiyalash vositalaridan biridir;
- o'yin bolalarga ta'lim va tarbiya berishning metod va usulidir;
- o'yin bolalarni o'quv faoliyatiga tayyorlash vositasidir;

Taniqli pedagog olimlarning olib borgan tadqiqotlari o'yinga kompleks rahbarlik qiliti orqali bolalarga axloqiy munosabatlari, bolalar o'ynining rivojlanishi darajasiga ta'sir etish mumkinligini ko'rsatadi.

Bolalar o'yini o'zining mazmuni, xususiyati, tashkil etilishiga ko'ra xilma-hildir, shuning uchun uni quyidagicha turkumlarga ajratiladi:

1. Ijodiy o'yinlar.
2. Qoidali o'yinlar.

Ijodiy o'yinlar bolalar o'zlari o'ylab topishadi. Unda oldindan belgilangan qoidalar bo'lmaydi. O'yin qoidasini bolalar o'zlari o'yin jarayonida belgilashadi.

Ijodiy o'yinlarga drammalashgan o'yinlar, qurilish o'yinlari, tabiiy materiallar bilan o'ynaladigan o'yinlar kiradi.

Qoidali o'yiplarning mazmuni va qoidasi kattalar tomonidan belgilanadi. Qoidali o'yinlarga quyidagilar kiradi: didaktik o'yinlar, harakatli o'yinlar, musiqali o'yinlar, ermak o'yinlar.

Bolalarga ta'lim tarbiya berish maqsadida kattalarning o'yinni tanlay bilishi, unga to'g'ri rahbarlik qilish kerak. Bolalar bog'chasida «ta'lim va tarbiya dasturi»da belgilangan vazifalarni muvaffaqiyatli amalga oshirishni ta'minlaydi.

O'yinda obraz, o'yin harakati, so'z o'zaro bog'lanib, o'yin faoliyatining asosiy negizini tashkil etadi, borliqni aks ettirish vositasi bo'lib, xizmat qo'ladi.

Bolalarning o'yinlari qiziqarli, mazmunli bo'lishi uchun o'ynining hamma turlaridan o'rinli foydalanilsa, bolalarga ta'lim berish va ularni tarbiyalashda ijobiy natijalarga erishiladi.

Avvalambor, o'yin jarayonida bolaning bilish faoliyati rivojlanadi, chunki o'yin faoliyati atrof-olamni borligicha tasavvur qilishni kengaytirish va chuqur o'rganish hamda diqqat, xotira, kuzatuvchanlik va fikrlashni mukammallashtirish uchun imkoniyat yaratib beradi.

O'yin jarayonida bolalar predmetlarni o'lchami, rangi, shakllarini solishtirishni, ularning nimadan tayyorlanganligini, tayyorlangan materiallar xususiyatlari, bu materiallarning qanday va nimadan olinganligi bilan tanishadilar (masalan: kubik – u plastmasadan tayyorlangan, plastmassa suniy ravishda laboratoriyalarda tayyorlanadi).

O'yin bolalarning jismoniy rivojlanishiga ta'sir ko'rsatadi. O'yin jarayonida bolalarning harakatchanlikka bo'lgan talabi qondiriladi, ular o'yinda yanada aniq va koordinatsiyalangan (aniq mo'ljalga yo'naltirilgan) holatga keladi.

Maktabgacha yoshdagi nutq nuqsoniga ega bolalarni duduqlanishini bartaraf etishda foydalaniladigan o'yin turlari mavjud. Bularga:

- didaktik o'yinlar;
- harakatli o'yinlar;
- drammatizatsiyalashtirilgan o'yinlar;
- sukut saqlash rejimiga qaratilgan o'yinlar;
- shivirlab gaplashishga qaratilgan o'yinlar;
- ashula aytish bilan olib boriladigan o'yinlar kiradi.

Bolalarda duduqlanishni bartaraf etishda yuqorida ko'rsatilgan barcha o'yinlardan foydalanish mumkin.

Harakatli o'yinlar. Nutq nuqsoniga ega bolalar bilan sekin bajariladigan harakatli o'yinlar o'tkaziladi. Chunki bolalarda nafas va nutq tempi buzilmasligi kerak. Shuning uchun oddiy harakat bilan bajariladigan harakatli o'yinlar bajariladi.

Ya'ni koptok, obruch, lenta, bayroqlar bilan o'ynaladigan o'yinlar. Bunday o'yinlarning asosiy maqsadi bolalarning umumiy harakati va nutqini mustahkamlashga qaratilgan.

Misol uchun «Koptok bilan bajariladigan harakatli o'yinlar».

1) Bolalar davra ko'rib turadilar, ularning har birida koptok bir logoped kursatmasiga ko'ra ular koptokni bir qo'lidan ikkinchi qo'lga otib ilib oladilar, osmonga otadilar, yonidagilarga uzatadilar, yarim o'tirgan holda o'z atroflarida dumalatadilar, koptokni tushirib yubormay qo'ldan qo'lga eng ko'p o'tkazgan o'ninchi g'olib hisoblanadi.

2) Bolalar sanasi orqali "ovchini" saylaydilar, u stulga o'tiradi, qo'lida 2-3 ta koptok, signal xushtak chalingach "quyonlar" chiziqdan ichkariga kirib "ovchi" atrofida chopa boshlaydilar, shundan keyin ikkinchi signal chalingach "quyonlar" chiziqdan tashqariga yuguradilar, "ovchi" esa ularga koptok otadi koptok kimga tegsa u "ovchi" vazifasini bajaradigan bo'ladi.

3) "Kim ushlaydi?" Bolalar ikkitadan bo'lib bo'linadilar va navbatchidan yog'och qoshiqlar olib, unga sharchalar soladilar va tez qadam tashlab kabinetning ohiriga yurib boradilar. Maqsad sharchani tushirib yubormaslik. Murakkablashgan varianti: Qoshik, bilan yuruvchining ko'zini bog'lab qo'tsiladi. Bunday juftliklarga navbat berish sanash orqali bajariladi.

Syujetli-rolli o'yinlardagidek, qoidalari o'yinlarda ham bolalar ushbu qoidalarga mos holda o'z hatti-harakatlarini tashkillashtiradilar, natijada ularda matonatlilik, tartiblilik, maqsadga intiluvchanlik, berilgan vazifalarga mos holda o'z istak-xohishlarini boshqara olish kabi shaxsiy sifatlari shakllanib boradi.

O'yin jarayonida bolaning axloqiy sifatlari tarbiyalanadi, bular: dadillik, qat'iyatlilik, adolatlilik (vijdonlilik), hayrixoxlikdir. Aksariyat o'yinlar kollektiv harakterga ega bo'lganligi sababli, ular jamoada muloqotga kirishish

malakalarini rivojlantirishga yordam beradi. Bolani o'yinchoqlarga va o'yin materiallarga bo'lgan ehtiyotkorona munosabatini, dastlabki mehnat malakalarini shakllantirishda ham o'yin faoliyatidan foydalanish lozim.

Aksariyat o'yinlar bolalarda estetik didini faollashtiradi. Juftliklarda turish, aylana bo'lib turish, o'yinlarga boshchilik qilayotgan kattalarga matnni ifodali talaffuz qilib berish, bular hammasi ularni chiroyli narsalarni anglashga o'rgatadi.

Maktabgacha yoshdagi bolalarda o'yin faoliyatini shakllantirish logoped va tarbiyachining vazifasiga kiradi. O'yinda bolalar qanchalik kam bo'lsa, shunchalik chetdan kattalar ko'proq bevosita aralashishlari kerak.

Nutqi to'liq rivojlanmagan bolalar haqida to'xtalib o'tsak, ularning psixik rivojlanishiga o'yinning umumiy ta'sir qilishida o'yin nutqning tiklanishiga spetsifik ta'sirini ko'rsatadi. Bolalarni har doim bir-biri bilan muloqot qilishga va o'z faoliyatini bir-biri bilan mulohaza qilishga o'rgatish kerak. Bu tashabbuskorona faol nutq malakalarini mustahkamlashga, og'zaki nutqni mukamallashtirishga, tilning grammatik qurilishini shakllantirishga va b.ga yordam beradi.

O'yin bola nutqining rivojlanishiga katta ta'sir ko'rsatadi, aynan dramalashtirilgan o'yinlar – biron-bir predmetni sahnalashtirish nazarda tutiladi. Jamoaviy qo'shiq va qo'shiqli o'yinlar nutqning ifodaliligi va so'zlarning harakatlar bilan bir-biriga moslashtirishni rivojlanishiga imkoniyat beradi. Bunga o'xshash o'yinlar, shuningdek, matn va harakatlarni ixtiyoriy eslab qolishni shakllantiradi.

Maktabgacha bo'lgan yoshda syujetli-rolli va qoidalarga ega bo'lgan o'yinlar o'tkaziladi. Keyingilariga didaktik va harakatli o'yinlar kiradi.

O'yin bu istak-xohishlarni ro'yobga chiqarish vositasi bo'lib, ammo yagona istak emas, balki umumlashgan istaklardir. Vigotskiy o'yin mezoni bo'yicha, unda soxta vaziyatlarni hosil qilishni tavsiya qilib, uning fikrlashicha bu qoidalar bilan uzviy bog'liqdir. Sohta vaziyat – o'yin, real vaziyatlardan farqi shundaki, «real hayotda mavjud bo'lgan narsa bola nazaridan chetda qoladi, lekin o'yinda hatti-harakatlarni belgilab beruvchi qonun-qoidalarni bildiradi».

Bola rivojlanishida o'yin roli katta ahamiyatga ega bo'lib, u quyidagilarga bog'liq: soxta vaziyatdagi hatti-harakat bolani vaziyatli aloqadorlikdan ozod etadi, bola o'yindagi vaziyatni ko'rishga emas, balki uni fikrlash, bilish, idrok qilishga o'rganadi.

O'yin jarayonida bola predmetlarning mazmun-mohiyatini ulardan ajralgan holda tushunishga, anglashga harakat qiladi, lekin bir vaqtning o'zida mavjud predmet orqali u faqatgina mavjud harakatni bajaradi, bu bilan biz bola predmet bilan emas, balki uning mohiyati bilan ishlashni boshlaydi demoqchimiz. Lekin ular bilan biron bir harakat qilmoqchi bo'lsa, u albatta bevosita shu predmetdan foydalanadi, uning mazmunini esa faqatgina maktab yoshida to'liq anglay oladi.

Umuman, bolalar jamoa holda o'yinlar o'ynar ekanlar, ular bu jarayonda jamoa orasida o'zini qanday tutish qoidalarini o'rganadilar, uyushqoqlik bilan

o'yin o'ynash ko'nikmalarini hosil qiladilar. O'z zimmalariga tushgan rollarni bajarishda katta ma'suliyatni his etishga odatlanadilar.

O'yinning muhim xususiyati shundaki, bolalar egallab olishlari qiyin bo'lgan bilim va ko'nikmalarni o'yin orqali osongina o'zlashtirib oladilar.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yhati:

1. P.M.Po'latova "Olifrenopedagogika" ma'ruzalar matni. Toshkent -2010
2. SH. Amirsaidova "Aqli zaif aqli zaiflikning og'ir darajasidagi bolalar psixologiyasi". Toshkent -2010
3. O'zbekiston Respublikasi «Nogironlar huquqini ijtimoiy himoyalash to'»risida»gi Qonuni. T.: 1991.
4. Aytmetova S. SH. "Osobennosti psixicheskogo razvitiya uchashix-sya vspomogatelnoy shkoli". Tashkent: «Ukituvchi», 1984.
5. N. Q.Abidova Autizm spektrli bolalarni o`qitish va tarbiyalash/o`quv qo`llanma.Toshkent – 2023 y.
6. N. Q.Abidova Autizm spektrli bolalarni o`qitish va tarbiyalash/o`quv qo`llanma.Toshkent – 2023 y.
7. Qutbiddinov A. N. THE TECHNOLOGY OF FORMING GEOMETRIC CONCEPTS IN PRIMARY CLASS STUDENTS WITH INTELLECTUAL DEFECTS BASED ON THE INNOVATION IDEA //INTEGRATION CLUSTER" ON THE BASIS OF INTERDISCIPLINARY RELATIONSHIPS." International Scientific and Current Research Conferences. – 2022.
8. Qutbiddinov A. N. THE TECHNOLOGY OF FORMING GEOMETRIC CONCEPTS IN PRIMARY CLASS STUDENTS WITH INTELLECTUAL DEFECTS BASED ON THE INNOVATION IDEA" INTEGRATION CLUSTER" ON THE BASIS OF INTERDISCIPLINARY RELATIONSHIPS //International Scientific and Current Research Conferences. – 2022. – C. 241-247.
9. Abidova, N. K. (2023). Psychological and pedagogical study of children with autism. Oriental Journal of Education, 3(03), 61-65.
10. Qutbiddinov, A. N. (2022). Technology of forming geometric concepts in primary class students with intellect defects on the basis of" integration Cluster". Journal of Pharmaceutical Negative Results, 6461-6466.
11. Nazokat, A. (2023). Autizm spektori buzilgan o `quvchilarning bilish faoliyatining o `ziga xos xususiyatlari. Journal of Academic Research and Trends in Educational Sciences, 412-415.
12. Abidova, Nazokat. "Positive effects of formation of knowledge, skills and skills on the basis of interdisciplinary relations." Academia: An International Multidisciplinary Research Journal 11.3 (2021): 2505-2510.

13. Qutbiddinova A. N. AUTIZM SPEKTORLI BOLALARDA IJTIMOYIY-MAISHIY MALAKALARNI RIVOJLANTIRISH: doi. org/10.5281/zenodo. 10555394 //ILM-FAN YANGILIKLARI KONFERENSIYASI. – 2024. – T. 1.№. 1.
14. Obidova, B., & Abidova, N. Q. (2023). RUHIY RIVOJLANISHI SUSTLASHGAN BOLALAR LUGAT BOYLIGINI RIVOJLANTIRISH. QO‘QON UNIVERSITETI XABARNOMASI, 417-419.
15. Abdupattayeva, D., and N. Q. Abidova. "IMKONIYATI CHEKLANGAN BOLALARNI INKLUZIV TA'LIMGGA KIRITISH UCHUN ULARNING OTA-ONALARINI TAYYORLASH YO 'LLARI." QO 'QON UNIVERSITETI XABARNOMASI (2023): 758-760.
16. No‘monjonova, R., & Abidova, N. Q. (2023). IMKONIYATI CHEKLANGAN YOSHLARNI OILAVIY HAYOTGA TAYYORLASH. QO‘QON UNIVERSITETI XABARNOMASI, 448-450.
17. Sharobidinova F., Abidova N. Q. AUTIZMGA EGA BOLALARNI PSIXOLOGO-PEDAGOGIK O‘RGANISH //QO‘QON UNIVERSITETI XABARNOMASI. – 2023. – C. 761-763.
18. Ubaydullayeva M., Abidova N. Q. O‘ZBEKISTONDA AQLI ZAIF BOLALARNI ERTA TASHXIS QILISH MUAMMOLARI //QO‘QON UNIVERSITETI XABARNOMASI. – 2023. – C. 764-766.

WOC
WORLD
ONLINE
CONFERENCES